



MUALLIFLIK SHARTNOMASINING FUQAROVIIY-HUQUQIIY SHARTNOMALAR TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Mustafoev Maqsud Amrullo o‘g‘li, Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti bosh yuriskonsulti, TDYU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: mustafoevmaksud@gmail.com

Bugungi kunda O‘zbekistonda mualliflik huquqini muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada, mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu sababli, ushbu maqolada mualliflik shartnomasining fuqaroviy-huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o‘rni, uning qanday shartnoma ekanligi, shuningdek, boshqa shartnomalarga o‘xshash va farqli jihatlari muhokama qilingan.

Mualliflik shartnomasi – muallif o‘z mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga mutlaq yoki nomutlaq tarzda o‘tkazishni nazarda tutuvchi shartnoma hisoblanadi. Shu ma’noda, mualliflik shartnomasi huquq egasi (muallif, ish beruvchi va boshqa mualliflik huquqlarining egasi)ga tegishli bo‘lgan huquqlarni (ko‘rsatilgan huquqlar doirasida) muayyan maqsadda (tijoratlashtirish yoki boshqa) foydalanuvchi shaxs bilan tuzilgan shartnoma, deyishimiz mumkin. [1]

Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bunda, EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari nusxalarini sotishda mualliflik shartnomasi, agar uning shartlari (dasturdan va ma’lumotlar bazasidan foydalanish shartlari) dastur yoki ma’lumotlar bazasi nusxalarida tegishli tarzda bayon qilingan bo‘lsa, yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi. [2]

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasida mualliflik shartnomasi va unga doir talablar belgilangan. Mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- asardan foydalanish usullari (shartnoma asosida o‘tkaziladigan aniq huquqlar doirasi);



- asardan foydalanishning har bir usuli uchun to‘lanadigan haq miqdori yoki to‘lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, shuningdek, uni to‘lash tartibi hamda muddatlari.

Asarni yaratuvchi, ya’ni muallif foydalanuvchiga bergan mulkiy huquqlar mualliflik shartnomasining *predmeti* hisoblanadi. Asarning o‘zi mualliflik shartnomasi bo‘yicha berilgan huquqlarning *obyekti* hisoblanadi. Bunda, o‘tkaziladigan konkret huquqlar shartnomada aniq ko‘rsatilishi lozim. Aks holda, boshqa shaxsga o‘tkazilishi mualliflik shartnomasida bevosita nazarda tutilmagan huquqlar boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, deb hisoblanadi.

Mualliflik shartnomalarining yana bir muhim shartlaridan biri – shartnomada narx (shartnoma bahosi) ko‘rsatilishi kerak. Ya’ni, foydalanuvchi shartnoma bo‘yicha asardan foydalanishi uchun muallifga to‘lashi kerak bo‘lgan mualliflik to‘lovi foizlarda ko‘rsatilishi kerak. Foydalanuvchi to‘laydigan haq foizlarda ko‘rsatilishi bejiz emas, chunki daromad oshgani sayin, muallifga to‘lanadigan haq ham oshib borishi kerak.

Moddiy obyektga bo‘lgan mulk huquqini yoki moddiy obyektga egalik qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish shu obyektga aks ettirilgan asarga bo‘lgan biron-bir mualliflik huquqining o‘z-o‘zidan boshqa shaxsga o‘tkazilishiga sabab bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mualliflik shartnomasi fuqarolik-huquqiy munosabatlaridagi hadya, meros, pudrat, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan farq qiladi.

Fuqarolik kodeksining 1056-moddasiga asosan, yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkinligi belgilangan. [3]

Bunda qayd etib o‘tish lozimki, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomasi mualliflik shartnomasi hisoblanmaydi. Chunki, y.f.f.d A.Yuldashov ta’kidlaganidek, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar va mualliflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar *topshiriq shartnomasi* xarakteriga ega bo‘ladi. [4]

Fuqarolik kodeksi 1036-moddasiga muvofiq, *litsenziya shartnomasi* bo‘yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan



mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (lisenziar) boshqa tarafga (lisenziatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi.

Ushbu shartnomaning o'ziga xos xususiyati shundaki, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar litsenziatga cheklangan hajmda beriladi, shuningdek, litsenziatga berilgan huquqlar doirasi litsenziya shartnomasining shartlari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, litsenziya shartnomasi sanoat mulk obyektlari doirasida ham tuzilishi mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mualliflik shartnomalari ham fuqarolik huquqiy shartnomalar tizimida muhim o'rin egallaydi. Huquq egalari va foydalanuvchilar ushbu shartnomalarni tuzish jarayonida uning o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa shartnomalar bilan o'xshash va farqli jihatlarini hisobga olishlari lozim. Chunki, ushbu jihatlar ikki taraf uchun ham kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli holatlarni oldini olishda manfaatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Окюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019. – 588 бет.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. 20.07.2006-yildagi O'RQ-42-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 28-29-son, 260-modda. <https://lex.uz/docs/-1022944>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 11-12-son, 1-modda; 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son. <https://lex.uz/docs/-180552>
4. Yuldashov A., Shanmuka S. N. RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI MUHOFAZASI //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 6. – С. 168-181.
5. <https://lex.uz/>